

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOQ'ISHTIRMA TAHLILI

Patxiddin NISHONOV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Munisa PRIMOVA

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ХАРАКТЕР ЧЕЛОВЕКА, ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Патхиддин НИШОНОВ

Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра теоретических дисциплин французского языка
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

Муниса ПРИМОВА

Преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков
Ташкентская медицинская академия
Ташкент, Узбекистан

COMPARATIVE ANALYSIS OF CHARACTER-EXPRESSIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Pathiddin NISHANOV

Candidate of philological sciences, associate professor
Department of Theoretical Sciences of the French Language,
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

Munisa PRIMOVA

Teacher of the Department of Uzbek and Foreign Languages
Tashkent Medical Academy
Tashkent, Uzbekistan

UDC (UO'K, УДК): 81'373.46: 811.512.133:
811.133.1

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Nishonov P. Fransuz va o'zbek tillarida xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarning

Annotatsiya. So'nggi vaqtlarda olimlar o'rtasida frazeologizmlarning madaniy axborot almashish funksiyasini, ya'ni frazeologizmlarning semantik strukturasi bir necha avlodlarning dunyoqarashi va dunyoni bilish sohasidagi tajribalarini aks ettirish vazifalarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bunday vazifalarni hal etishda turli tillarda frazeologizmlarning semantik va funksional jihatlarini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda frazeologizmlarning lingvistik jihatlarini keng

chog'ishtirma tahlili // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 76-91.

<https://doi.org/10.36078/1678954790>

Received: December 26, 2022

Accepted: February 17, 2023

Published: February 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



o'rganilishiga qaramay, ularning inson, uning tabiati, xarakteri bilan aloqador tomonlari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqolada fransuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalar qiyosiy aspektda o'rganildi. Tadqiqot uchun frazeologik tizimning aynan inson xarakteriga oid kichik qatlamining olinganligi bejiz emas. Tadqiqotimiz davomida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalar ikki til o'rtasidagi lingvistik va ekstralingvistik aloqalarni aniqlash imkoniyatini yaratdi. Ikki tilda olib borilgan tadqiqot natijalari asosida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalar strukturasi va semantikasi muayyan tiplarga ajratildi. Frazeologik lug'atlardan mavzuga oid birikmalar to'plandi va ularning leksikografik tabiati o'rganildi.

Kalit so'zlar: frazeologik birikmalar; ibora; inson xarakteri; qiyosiy frazeologiya; tasniflash; leksik-grammatik turkum.

Аннотация. В последнее время возраст интерес к изучению функции культурно-информационного обмена фразеологизмов, т. е. задач отражения в семантической структуре фразеологизмов мировоззрения и опыта нескольких поколений в области познания мира. При решении таких задач важное значение приобретает сравнительное изучение семантических и функциональных аспектов фразеологизмов в разных языках. Несмотря на то что лингвистические аспекты фразеологизмов широко изучаются, вопросы, связанные с человеком, его природой, характером, изучены недостаточно. В данной статье в сопоставительном аспекте изучены фразеологические единицы, выражающие характер человека во французском и узбекском языках. В ходе исследования фразеологические единицы, выражающие характер человека, дали возможность выявить лингвистические и экстралингвистические связи между двумя языками. По результатам исследований, проведенных на двух языках, структура и семантика фразеологических единиц, репрезентирующих характер человека, были разделены на определенные типы. Собраны по фразеологическим словарям тематические единицы и изучена их лексикографическая природа.

Ключевые слова: фразеологические единицы; выражение; характер человека; сравнительная фразеология; классификация; лексико-грамматическая категория.

Abstract. In recent times, there has been an increasing interest among scientists in studying the function of cultural information exchange of phraseologisms, that is, in the semantic structure of phraseologisms, the tasks of reflecting the worldview and experiences of several generations in the field of knowledge of the world. In solving such tasks, a comparative study of the semantic and functional aspects of phraseologisms in different languages plays an important role. Despite the fact that the linguistic aspects of phraseologisms are widely studied in research, their aspects related to a person, his nature, and character have not been sufficiently studied. In this article, phraseological combinations representing human character in French and Uzbek languages were studied on a comparative aspect. It was on purpose that a small layer of the phraseological system was taken for research, which is precisely about the character of a person. In the course of our study, phraseological combinations representing human character made it possible to identify linguistic and extralinguistic connections between two languages. Based on the results of a study in two languages, the structure and semantics of phraseological combinations representing a person's character were divided into

specific types. From phraseological dictionaries, compounds related to the topic were collected and their lexicographic nature was studied..

Keywords: phraseological units; expression; human character; comparative phraseology; classification; lexico-grammatical category.

Kirish. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy o‘rganish tarixi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Dastlabki tadqiqotlar ko‘proq frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lsa, keyinchalik tadqiqotlar ko‘lami kengayib borgan. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida ham lingvistik tadqiqotlar ko‘lami ortib borishi bilan turli tillar frazeologiyasini qiyosiy o‘rganish masalasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. O‘zbek tilshunosligida 2000-yillarga qadar frazeologizmlarning semantik, grammatik va uslubiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan ishlar salmog‘i ancha keng bo‘lgan. Hozirgi bosqichda esa tadqiqotlarda asosiy e‘tibor o‘zbek frazeologizmlarini chet tillardagi frazeologizmlar bilan chog‘ishtirma asosda o‘rganishga qaratilmoqda.

Asosiy qism. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy aspektda o‘rganish masalasi keyingi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. G.S. Qurbonova “Fransuz va o‘zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishida ikki tildagi onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash bilan birga ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini tadqiq qilgan. Buning uchun muallif chog‘ishtirilayotgan tillarda antroponim komponentli frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlagan, frazeologik birliklarning motivatsiyasini belgilash orqali frazeologizmlar tarkibidagi dominant antroponim komponentlarning milliy-madaniy chog‘ishtirma tahlilini o‘tkazgan, toponim komponentli frazeologizmlarni lisoniy-madaniy belgilariga ko‘ra tasniflagan hamda ularning konnotativlik darajasini aniqlashga erishgan (13).

Aynan onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini va ularning tarjimasini muammolarini M. A. Radjabova ingliz, o‘zbek va rus tillari materialida o‘rgangan. Muallif frazeologiyaning bir qismi bo‘lgan onomastik komponentli iboralarning milliy-madaniy xususiyatlarini ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida qiyosiy-tipologik aspektda ochib berish, tarkibini semantik va struktur tahlil qilish, etimologik manbalarini aniqlash va tasnifini amalga oshirish, ekvivalentligi hamda o‘ziga xos tizim ekanligini asoslash tillararo, madaniyatlararo aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bergan (8, 8–9).

Fransuz va o‘zbek tillari frazeologiyasini qiyosiy o‘rganishga A. A. Nasirov ham katta hissa qo‘shgan. U o‘zining doktorlik dissertatsiyasida fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbal frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlarini chog‘ishtirib o‘rgangan. Ushbu tadqiqotda proverbal frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi, manbalari, proverbal

frazeologizmlarga doir terminlar apparati ishlab chiqilgan, qiyoslanayotgan tillarda frazeo-semantik guruh tarkibiga kiruvchi proverbial frazeologizmlarning mazmunini ochib berish va ularni tegishli tartibda frazeo-semantik maydonlarga ajratish amalga oshirilgan. Bundan tashqari, muallif proverbial frazeologizmlarning stilistik xususiyatlarini yoritish bilan birga ularning okkazional transformatsiyalanish usullarini aniqlagan.

Tadqiqotda tanlab olingan materialni semantik maydon doirasida tadqiq qilish metodidan foydalanilgan bo'lib, ushbu metod o'rganilayotgan frazeologik birliklar o'rtasida mavjud bo'lgan sistem aloqalarni ochib berishga xizmat qilgan. Shundan kelib chiqib, muallif proverbial frazeologizmlarga "nutq jarayonida tayyor holda namoyon bo'ladigan, to'liq yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatiladigan, strukturasi gapga teng, semantik yaxlit, kontekst tarkibida mustaqil ma'no anglata oladigan, kinoya-qochirimli, nasihatombuz fikrni ifodalovchi maqol, matal, hikmatli so'z, aforizm, naql, o'git, yumuq iboralardan tarkib topgan turg'un birikmalar"ni kiritadi (7,14).

Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, iboralar, uslubiy bo'yoqlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, ramzlar kabilar vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Shu sababli til xalq madaniyatining eng asosiy belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Rus tilshunosi G. O. Vinokur til va madaniyat o'rtasidagi munosabat to'g'risida shunday yozadi: "Xalqning tarixi uning davlatchiligi yoki huquqi tarixisiz to'liq bo'lmaganday til tarixisiz ham to'liq bo'lmaydi. Shunday qilib, xalqning tarixi va uning tili o'rtasidagi munosabatlar "Til tarix ko'zgusidir" degan aforizmdek sodda emas. Til haqiqatda xalq tarixini aks ettiradi, biroq shu bilan birga uning o'zi ham shu tarixning bir qismi, xalq ijodkorligining mahsuli hisoblanadi. Demak, alohida olingan bir tilni o'rganish muayyan madaniyatni o'rganayotgan kishi oldidagi yordamchi yoki texnik vazifa emas, balki uning oldidagi to'g'ridan-to'g'ri va bevosita vazifadir. Shu sababli tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, o'z xoxish irodasidan qat'i nazar tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi" (4, 211).

Z. N. Xudoyberganova til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasi bo'lib, u ruhimizning borlig'i, madaniyatimizning ko'rinishi ekanligini hamda milliy mentallikning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashini ta'kidlab o'tadi (12, 32).

Frazeologiya leksikologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u keyingi yillarda jadal lingvistik tadqiqotlar olib borilayotgan sohaga aylandi. Aynan shu sababli frazeologiya o'zining tadqiqot obyektiga ega bo'lib, mustaqil fan tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda. Tilshunoslikda frazeologiyaning nazariy masalalari dastlab shveysariyalik olim Sh. Balli tomonidan o'rganilgan. Sh. Balli tilshunoslik tarixida ilk marta frazeologiya hodisasini nazariy jihatdan o'rgandi va frazeologiya faniga asos soldi. "Frazeologiya" (phraséologie) termini fanga aynan Sh. Balli tomonidan kiritilgan. U o'zining *Précis de stylistique française* (Fransuz tili stilistikasi, 1905)

va *Traité de stylistique* (Stilistikadan ocherklar, 1909) deb nomlangan asarlarida frazeologiyaga oid eng muhim nazariy muammolarni ko‘tarib chiqdi. Garchi olimning qarashlari keyinchalik boshqa ayrim olimlar tomonidan tanqidga uchragan bo‘lsa-da, u ko‘targan masalalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Olim yozadi: “So‘z birikmalarining o‘zaro bog‘lanish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Bular: 1) birikma yasallishidan keyin uni hosil qilgan so‘zlar yana bo‘linib ketadi va mustaqil holda boshqa birikmalarni hosil qilaveradi; 2) so‘zlar doimiy ravishda muayyan birikuvda qo‘llanishi natijasida aynan bir ma‘noni ifodalaydi va shu sababli ular o‘z mustaqilligini batamom yo‘qotib, o‘zaro birikish natijasida ma‘no ifodalaydi va so‘zlar shu ma‘no doirasida doimo bir-birlarini taqozo etadilar” (2, 98). Sh.Balli frazeologizmlarning asosiy belgisi sifatida ularning semantikasini ko‘rsatgan. Uning fikricha, frazeologik birikmalarning ichki qurilishi (semantikasi), tashqi qurilishiga (struktur xususiyatlari) ko‘ra ko‘proq o‘rganishni taqozo etadi.

Frazeologik birliklar ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatning umumiy tasviri, yashash tarzi, urf-odatlarini o‘zida namoyon etadigan til vositasi hisoblanadi. Tilshunoslikda frazeologiya tilning beqiyos boyligi, cheksiz imkoniyatlari hamda uning o‘ziga xos tarixiy-taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi leksik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. U lug‘at sathidagi eng erkin qo‘llaniladigan sath bo‘lib, asosi eng qadimgi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi (1, 14).

Frazeologik birliklar o‘z semantikasida xalqning uzoq davom etuvchi madaniy rivojlanish jarayonlarini aks ettirib, o‘sha xalqning bilimlari hamda til va nutq andozalarini qayd etib boradi va avlodlardan avlodlarga yetkazib beradi. F. I. Buslaev frazeologizmlarni o‘ziga xos mikro olam deb ataydi (3, 37). Ular o‘zlarida ajdodlar tomonidan keyingi avlodlarga qisqa va ixcham iboralar shaklida qoldirilgan axloqiy qoidalar va sog‘lom fikrlarni aks ettiradi. Frazeologizmlar har qanday milliy tilning qalbi hisoblanib, ularda millatning ruhi va o‘zligi takrorlanmas darajada ifodalanadi. Shu sababli deyarli barcha frazeologizmlarda milliy madaniyat izi saqlanib qolgan bo‘ladi.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa dahldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. O‘zbek tilida frazeologizm *ibora*, *frazeologik birlik*, *turg‘un birikma*, *barqaror birikma*, *frazeologik birikma* atamaları bilan ham yuritiladi.

Tillarning frazeologik qatlamini qiyosiy tadqiq qilish avvalo tadqiqot metodlarini ishlab chiqishni talab etadi. Qiyosiy tadqiqotda o‘zaro qiyoslanayotgan birliklar semantikasi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu borada A. D. Rayxshteynning yozishicha, turli tillarning o‘ziga xosliklari, ular o‘rtasidagi shakliy va mazmuniy munosabatlarni aniqlash, ularni birlashtiruvchi mikrotizim va tizimlarni tiklashning asosiy sharti bu — til birliklarini, shakllarni, kategoriyalarni, turkumlar va boshqa lisoniy hodisalarni o‘zaro munosabatini o‘rganish, qiyoslash yoki zidlash orqali taqqoslashdir.

Qiyoslanayotgan til faktlari o'rtasidagi bir xil (integral) hamda farqli (differensial) belgilarni aniqlash — lingvistik chog'ishtirishning asosiy elementi hisoblanadi (9, 6).

Turli tillarda xarakter ifodalovchi FBlarning grammatik tuzilishini chog'ishtirib o'rganish ham semantik qatlam kabi qiyoslashning tarkibiy elementlaridan hisoblanadi. Biz qiyoslanayotgan tillarda xarakter ifodalovchi FBlarning grammatik shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, ikki til o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga harakat qildik. FB murakkab tuzilishga ega bo'lgan yaxlit birlik bo'lib, ular doimo muayyan komponentlardan tashkil topadi. Nemis va o'zbek tillarida inson xarakteriga oid frazeologik birliklarni tadqiq qilgan M. A. Sulaymonovaga ko'ra, frazeologik birliklar grammatik tuzilishi jihatidan erkin so'z birikmalari yoki gaplardan farq qilmaydi (10, 30).

Biz o'z ishimizda so'z birikmasiga teng bo'lgan frazeologizmlarni tadqiq qildik va ularni quyidagi mezonlar asosida guruhlariga ajratdik:

1. *Asosiy komponentning morfologik ifodalanishiga ko'ra.* Morfologik nuqtayi nazardan FBlar u yoki bu so'z turkumiga bog'langan bo'ladi. Shu sababli ularni asosiy komponentning grammatik shakliga ko'ra guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq. FBning asosiy komponenti deganda grammatik jihatdan mustaqil, muayyan so'z turkumiga oid bo'lib, u yoki bu gap bo'lagi vazifasida kelgan komponent tushuniladi. Shu jihatdan olinganda, o'tli, fe'lli, sifat va ravishli FBlar ajratiladi.

2. *FBning sintagmatik qurilishiga ko'ra,* ya'ni komponentlarning o'zaro bog'lanishiga ko'ra (teng va tobe (moslashuv, boshqaruv, bitishuv)).

3. *Tobe komponentning asosiy komponentga nisbatan tutgan o'rniga ko'ra* (asosiy komponentdan oldin yoki keyinda kelishi).

M. A. Sulaymonovanning ta'kidlashicha, FBlar strukturasi tadqiq qilishga qaratilgan bunday mezonlardan V. Arakin tomonidan ruscha inglizcha so'z birikmalarini qiyosiy o'rganishda, shuningdek, boshqa olimlar tomonidan tillarni qiyosiy aspektda tadqiq qilishda samarali foydalanilgan (10, 31). Bizning nazarimizda, aynan yuqoridagi mezonlar fransuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi FBlarning struktur xususiyatlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Qiyoslanayotgan tillar qardosh bo'lmagan til oilalariga mansub bo'lganligi bois ulardan har birining ichki xususiyatlarini ham e'tiborda tutib, qiyoslash mezonlariga quyidagilarni ham qo'shishni lozim topdik:

— fransuz tilidagi FBlardan oldin artikl qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligi;

— o'zbek tili otlarining artiklsiz qo'llanilishi.

Fransuz va o'zbek tilarida xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarning struktur tahlili shuni ko'rsatdiki, qiyoslanayotgan tillarda quyidagi tuzilishdagi birliklar mavjud:

1. O'tli frazeologik birliklar.
2. Fe'lli frazeologik birliklar.
3. Sifat (ravishli) asosli frazeologik birliklar.

Fransuz va o'zbek tillarida xarakter ifodalovchi otli frazeologik birliklar. Otli frazeologik birikmalarga ot so'z turkumidagi so'zlar bilan bir xil vazifani bajaruvchi va asosiy komponenti otdan tashkil topgan birikmalar kiritiladi. Tadqiqotimiz davomida fransuz tilida tahlilga tortilgan FBlarning 162 tasi (18 %), o'zbek tilida tahlilga tortilgan FBlarning 58 tasi (11 %) aynan otli birikmalarga kirishi aniqlandi. Fransuz tilidagi otli FBlarning eng katta qismi ot hokim so'z bo'lgan predikativsiz birikmalar hisoblanadi. Predikativsiz otli FBlarga ergashtiruvchi, biriktiruvchi strukturali birikmalar kiradi.

Fe'lli frazeologik birikmalarga ma'nosidan ish-harakat, jarayon anglashiladigan va shu sabab asosiy komponenti fe'ldan tashkil topgan birikmalar kiritiladi. Biz o'z tadqiqotimiz uchun ma'nosidan inson xarakteri anglashiladigan, inson harakatini baholovchi birikmalarni tanlab oldik. Fransuz va o'zbek tillarida bunday birikmalar insonlarning turli harakatlarini, his-tuyg'ularini hamda boshqa insonlarga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Frazeologik birikmalar orasida eng ko'p uchraydigan turi fe'lli FBlar hisoblanadi. Fransuz tili frazeologiyasi tarixini tadqiq qilgan A. G. Nazaryan har ikki frazeologizmdan biri aynan fe'lli frazeologizmlarga to'g'ri kelishini aniqlagan (5, 159). Bu narsa fransuz tilida fe'lning tutgan o'rni juda katta ekanligi bilan izohlanadi. Zero, fransuz tilida har qanday gapning tarkibida fe'l qatnashishi zaruriyatdir. Shuni ta'kidlash zarurki, fransuz tili nutq jarayonida ko'plab FBlar *être, avoir, faire, mettre, prendre* kabi fe'llar ishtirokida yasaladi. Til darajasida ham mazkur fe'llar FBlarning ajralmas bo'lagi bo'lib qoladilar.

Fe'lli frazeologik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu ularning konversiyaga uchramasligidir. Substantiv, sifat va ravish asosli frazeologizmlar bir leksik-grammatik turkumdan boshqasiga o'tishi mumkin bo'lsa, fe'lli frazeologik birikmalar bunday xususiyatga ega emaslar, ya'ni ular boshqa turkumlar asosida yasalmaydi va o'zlari ham boshqa turkumdagi frazeologik birikmalarning yasalishi uchun asos bo'la olmaydilar.

Boshqa turkumdagi nominativ FBlardan farqli o'laroq, fe'lli FBlar tarkibida doimo fe'l uchraydi. Fe'l fe'lli FBlar tarkibida birinchi o'rinda, juda kam hollarda esa ikkinchi o'rinda turadi. A. G. Nazaryan fransuz tilidagi fe'lli FBlarning quyidagi struktur turlari mavjudligini ko'rsatib o'tgan: a) bir asosli frazeologizmlar; b) tobe bo'lakli hamda tobe va teng bo'lakli tuzilmaga ega frazeologizmlar; v) qisman predikativli frazeologizmlar (6, 100). Tadqiqotimiz davomida xarakter ifodalovchi frazeologik birikmalar ham aynan shunday tuzilishga ega bo'lishi aniqlandi.

Bir asosli frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlar bog'lovchi fe'l va predikativ bo'lakdan tashkil topadi. Tadqiqotimiz fransuz tilida xarakter ifodalovchi frazeologik birikmalarning eng katta qismi *être, rester, demeurer, devenir, se trouver, se faire, se tenir* kabi fe'llar yordamida yasalishini ko'rsatdi.

Fe'lli FBlarning predikativ bo'lagi qaysi turkumdagi so'z bilan ifodalanishiga ko'ra ular yasalanishining quyidagi modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bog'lovchi fe'l va ot. Uning ikkita turi mavjud:

a) Vcop + (art)N : être chien “itdek jahldor bo'lmoq”.

b) Vcop + prep + (art)N : être à bout “sillasi qurimoq”; être de la partie “ishtirok etmoq”; demeurer en suspens “nima qilishni bilmaslik”.

2. Bog'lovchi fe'l va sifat. Bu modelning ham ikkita turi mavjud:

a) Vcop + Adj: se faire petit “o'zini sipo ko'rsatish”.

b) Vcop + prep + Adj: être à sec “bir chaqasiz qolmoq”.

3. Bog'lovchi fe'l va ravish. Vcop + Adv: rester court “tili gapga kelmay qolmoq”; se trouver mal “hushidan ketmoq”.

4. Bog'lovchi fe'l va son. Vcop + Adv: Ushbu modelning ikkita turi farqlanadi:

a) Vcop + Num: n'être qu'un “bir butun bo'lmoq”;

b) Vcop + prep + Num: se tenir à quatre “o'zini bazo'r bosmoq”.

Tobe bo'lakli tuzilmaga ega frazeologizmlar. Bunday tuzilmaga ega FBlar fe'lli frazeologizmlar orasida eng katta o'rinni egallaydi va ularning quyidagi modellari mavjud:

1. Fe'l va vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi tobe bo'lak. Tobe bo'lak turli so'z turkumlari orqali ifodalanishi mumkin. Ular quyidagilar:

a) V + (art/Poss)N: faire fortune “boyib ketmoq”; battre le pavé “laqillab yurmoq”; marquer un point “muvaffaqiyat qozonmoq”; donner du cœur “ruhlantirmoq”; gagner sa croûte “ishlab pul topmoq”.

b) V + Num: ne faire qu'un “bir butun bo'lmoq”;

v) V + tour inf., bunda fe'l infinitiv shakldagi tobe qism bilan birikib ibora hosil qiladi. Ibora olmosh, aniqlovchi yoki ravish bilan ifodalangan infinitiv so'roq konstruksiya tuzilishida bo'ladi. Bunday modeldagi frazeologizmlarning yetakchi bo'lagi bo'lib **savoir** fe'li xizmat qiladi: savoir à quoi s'en tenir “qanday yo'l tutishni yaxshi bilmoq”; ne pas savoir à quel saint se vouer “nima qilishni bilmay qolish”; ne savoir où donner de la tête “boshini qayerga urishni bilmaslik”.

2. Fe'l va vositali to'ldiruvchi vazifasidagi tobe bo'lak. Ushbu modelning quyidagi turlari mavjud:

a) V + prep + (art / Poss)N: tirer à conséquence “oqibati jiddiy bo'lgan”; jouir de la lumière “hayotdan zavqlanmoq”; jouer avec le feu “olov bilan o'ynashmoq”; tenir à sa peau “o'z joni uchun tashvish tortmoq”.

b) V + prep + Pron: être à soi “o'ziga o'zi xo'jayin bo'lmoq”; trancher de tout “qat'iy ohangda gapirmoq”.

3. Fe'l va hol vazifasidagi tobe bo'lak. Tobe bo'lak turli so'z turkumlari orqali ifodalanishi mumkin. Ushbu modelning quyidagi turlari mavjud:

a) V + Adv: aller bien “o'zini yaxshi his etmoq”; tenir bon “qattiq (mustahkam) turmoq”. Bunday modeldagi frazeologizmlarda fe'l passiv shaklda kelishi mumkin. Bunday hollarda ravish odatda

yordamchi fe'l va sifatdosh o'rtasida keladi: être bien vu "yaxshi odam sanalmoq"; être mal venu "chaqirilmagan mehmon".

Bunday guruhga tobe bo'lagi predlog bilan omonim hisoblangan ravish bilan ifodalangan FBlar ham kiradi: passer outre "diqqat bermasdan o'tib ketish"; passer avant "birinchida bo'lmoq"; être pris devant "bexosdan bostirib kelmoq"

b) Adv + V: mal donner "qartani tarqatishda adashmoq";

v) V + Advcomp — (fe'l va qiyosiy darajadagi ravish): aimer mieux "yoqtirmoq"; faire pis "o'zini battar yomon tutish";

g) V + Adjadv — (fe'l va ravishlashgan sifat): faire maigre "to'yib ovqat yemaslik"; rire jaune "xohlamay kulish".

d) V + Partadv — (fe'l va ravishlashgan sifatdosh): jouer serré "ehtiyotkorlik bilan harakat qilish";

ye) V + art / Adj / Poss + Nadv — (fe'l va ravishlashgan ot, sifat yoki egalik olmoshi): Bunday modeldagi frazeologizmlarda bosh bo'lak bo'lib ko'pincha **aller** fe'li keladi: aller le diable "shayton quviganday qochish"; aller bon train "ishlari joyida, muvaffaqiyat bilan ildamlamoq"; aller son chemin "o'z yo'lidan ketmoq";

j) V + N1 + prép + N1 — (fe'l va à predlogi bilan o'zaro bog'langan ikki bir xil ot): se battre pied à pied "har qarich yer uchun kurashmoq, mardona jang qilmoq";

z) V + prép + (art / Poss) N — bunday modeldagi frazeologizmlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning tobe bo'lagi bosh bo'lakka quyidagi predloglar yordamida birikadi:

à : aller à Canossa "aybdorni olib kelmoq";

de : tomber du ciel "osmondan tushmoq, yer tagidan o'sib chiqmoq";

en : traîner en longueur "ishni cho'zmoq";

dans : tomber dans l'eau "rejani buzmoq";

sur : aller sur le pré "duelda qatnashmoq";

par : mener qn par le nez "majburan olib kelish";

avec : parler avec abondance "erkin gapirish, so'zga chechan";

pour : partir pour la Belgique "kreditorlardan qochish";

sans : s'embarquer sans biscuit (s) "tayyorgarliksiz ish boshlamoq";

sous : rentrer sous terre "yer tagiga kirib ketish";

contre : aller contre le courant "shamolga qarshi yurmoq";

jusque : aller jusqu'au bout "har narsaga tayyor bo'lmoq, oxirigacha bormoq";

hors de : être hors de cause "ishga aloqasi yo'q";

i) V + prép + (art / Poss) Num: se mettre en quatre "terisiga sig'maslik"; mettre dans le mille "nishonga tegmoq"; être sur son trente et un "chiroyli, did bilan kiyinish";

k) V + prép + Pron: prendre sur soi "zimmasiga olmoq"; être au-dessus de tout "martabasi yuqori bo'lmoq";

l) V + prép + Inf: se dépenser sans compter "o'zini ayamaslik"; parler pour parler "gap sotish";

m) V + prép1 + (art)N1 + prép2 + (art)N2 (fe'l va turli otlar bilan ifodalangan ikki hol. Ot artikl yoki predlog bilan kelishi mumkin): passer du coq à l'âne "bir mavzudan ikkinchisiga o'rinsiz

o'tish"; tomber de la poêle dans le feu "o'tdan qochib yashinga uchramoq".

4. Fe'l va infinitiv bilan ifodalangan tobe bo'lak. Bu modelning ikki xil turi mavjud:

a) V + prép + Inf: laisser à désirer "hali ancha kamchiliklari bor"; donner à entendre "biror narsaga sha'ma qilmoq";

b) V + Inf. Bunda infinitiv predlogsiz keladi. Ushbu model ko'pincha (se) laisser, (se) faire, shuningdek, savoir, pouvoir, vouloir kabi fe'llar vositasida yasaladi. Misollar: laisser tomber "o'zini eshitmaganlikka olmoq"; se faire valoir "maqтанmoq"; vouloir dire "anglatmoq".

5. Fe'l va predikativ vazifasidagi tobe bo'lak. Bu modelning ham ikki xil turi mavjud:

a) V + art / Poss + N + Adj: tenir la draguée haute 1) "kuttirmoq"; 2) "yuqori narxda to'latmoq"; tenir sa poudre sèche "qurol-aslahani shay qilib turmoq";

b) V + const abs, (fe'l va absolyut ibora birikivi): prendre qn la main dans le sac "jinoyat ustida qo'lga tushirmoq".

6. Fe'l va predikativ aniqlovchi vazifasidagi tobe bo'lak. Uning ikki turi mavjud:

a) V + (art)N + Adj: aller la tête haute "boshini g'oz tutib yurmoq"; rester bouche close "og'ziga mahkam bo'lmoq, sir saqlay olmoq";

b) V + (art)N1 + prép + (art)N2: aller bride en main "ehtiyotkor bo'lmoq"; parler le cœur sur la main "chin ko'ngildan, qo'lini ko'ksiga qo'yib gapirmoq".

7. Bog'lovchi fe'l va predikativ vazifasidagi bo'lak. Bu modelning predikativ bo'lagi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra quyidagi turlar farqlanadi:

a) Vcop + (art)N, bunda predikativ bo'lak quyidagicha ifodalanishi mumkin:

— postpozitiv predlogsiz aniqlovchi bilan: rester lettre morte "qog'ozda qolib ketmoq";

— prepozitiv predlogsiz aniqlovchi bilan: être un grand grec "ustasi farang";

— prepozitiv hol bilan: être tout oreille "butun vujudi bilan tinglamoq";

— postpozitiv predlogli aniqlovchi bilan: être la fable du quartier "hammaning og'zida bo'lmoq";

b) Vcop + prép + (art)N, bunda predikativ bo'lak quyidagicha ifodalanishi mumkin:

— prepozitiv aniqlovchi bilan: être de bon compte "adolatli bo'lmoq"; être du même tonneau "ularning hamiri bir, tuprog'i bir yerdan olingan";

— postpozitiv aniqlovchi bilan: être à couteaux tirés (avec qn) dushmanlik munosabatida bo'lmoq";

— prepozitiv hol bilan: être totu de feu (pour qch) "istagida yonmoq";

v) Vcop + Adj, bunda bog'lovchi fe'l sifat bilan birikadi va quyidagicha ifodalanishi mumkin:

— prepozitiv hol bilan: être bien aise “mamnun bo‘lmoq”;
 — vositali to‘ldiruvchi bilan: être franc du collier “qat’iy harakat qilmoq”;

8. Fe’l va fe’ldan oldin keluvchi olmoshning birikuvidan hosil bo‘lgan frazeologizmlar. Bu model fransuz tiligagina xos bo‘lib, o‘zbek tilida uchramaydi. U quyidagi olmoshlar bilan yasaladi:

en : en vouloir à qn “xush ko‘rmaslik, yoqtirmaslik”; s’en faire “bezovta bo‘lmoq”;

y : y être “tayyor bo‘lmoq”; s’y prendre “boshlamoq”

le, la, les : la faire à qn “aldamoq”; l’emporter sur qn “g‘olib kelmoq”; les mettre “qochmoq”.

Ergashtiruvchi va teng aloqali fe’lli frazemalar. A.G. Nazaryan fransuz tiliga teng aloqali fe’lli frazemalar xos emasligini ta’kidlab o‘tgan (6, 105). Teng bog‘lovchili fe’lli frazemalarga *aller et venir* “u yoqdan bu yoqqa yurmoq, yugurib-yelmoq” frazemasida juda kam sonli istisnolardan biridir. Biroq fransuz tilida ergashtiruvchi va teng aloqali fe’lli frazemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular tobe qismning o‘zaro bir xil, grammatik jihatdan teng bo‘laklar vositasida (ko‘pincha *et* bog‘lovchisi bilan, kam hollarda boshqa bog‘lovchilar bilan) ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Bunday FBlarning quyidagi tuzilishlari mavjud:

1. V + (art)N1 + conj + (art)N2, bu yerda ikkita turli ot turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan tobe bo‘lak vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi: *promettre monts et merveilles* “oltin tog‘larni va’da qilmoq”; *connaître le fonds et le tréfonds* “masalaning ikir-chikirini bilmoq”.

2. V + prép1 + (art)N1 + conj1 + prép1 + (art)N2, bu yerda tobe bo‘lak ikkita turli ot turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan va ulardan oldin bir xil predlog kelgan. Bunday modeldagi frazemalarda tobe bo‘lak quyidagi vazifalarni bajaradi:

— vositali to‘ldiruvchi: *manquer de feu et de pain* “nonsiz qolmoq”; *parler de la pluie et du beau temps* “bekorga gap sotmoq”;

— hol: *bâtir à chaux et à sable* “mustahkam qurmoq”.

3. V + prép + (art)N1 + conj + (art)N2, bu yerda tobe bo‘lak ikkita turli ot turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan va ulardan faqat birinchisi predlog bilan keladi. Bunday modeldagi frazemalarda tobe bo‘lak quyidagi vazifalarni bajaradi:

— hol: *glisser entre cuir et chair* “mavzuni ustalik bilan o‘zgartirmoq”; *mettre le doigt entre l’arbre et l’écorce* “birovlarining oilaviy ishiga aralashmoq”;

— vositali to‘ldiruvchi: *jouer à pile ou face* “qur’a, chek tashlamoq”.

4. Vnég + ni + (prép) N1 + ni + (prép) N2, bu yerda bo‘lishsiz shakldagi fe’l va ikkita turli ot turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan tobe bo‘lak birikadi. Har ikkala otdan oldin *ni* yuklamasi yoki boshqa predlog keladi. Bunday modeldagi frazemalarda tobe bo‘lak quyidagi vazifalarni bajaradi:

— vositasiz to‘ldiruvchi: *ne voir ni ciel ni terre* “hech narsani ko‘rmaslik”;

— vositali to‘ldiruvchi: *ne connaître ni d’Adam ni d’Eve* “hech kimni tanimaslik”.

5. V + Adv1 + conj + Adv2, bu yerda fe‘l va ikkita har xil ravish yoki ravishlashgan so‘z bilan ifodalangan tobe bo‘lak birikadi. Tobe bo‘lak hol vazifasini bajaradi: *pendre qn haut et court* “shafqatsizlik bilan jazolamoq”

6. V + Adj1 + N1 + Adj1 + N2, bu yerda tobe bo‘lak ikkita har xil otdan iborat va ulardan oldin bir xil sifat keladi. Bunday frazemalarning vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keluvchi tobe bo‘lak qismlari o‘rtasidagi aloqa bog‘lovchisiz bo‘ladi: *jouer bon jeu bon argent* “odil o‘ynamoq”.

Ergashtiruvchi va teng bog‘lovchili fe‘lli FBlarning tobe bo‘lak qismlari o‘rtasida quyidagi aloqalar mavjud:

— biriktiruvchi aloqa: *jeter feu et flamme* “g‘azabini sochmoq”;

— teng va inkor qiluvchi aloqa: *n’avoir ni feu ni lieu* “hech narsasi yo‘q”;

— ayiruvchi aloqa: *tirer à pile ou face* “taqdirga ishonmoq”;

Qisman predikativli fe‘lli frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlar noaniq shakldagi fe‘l va shaxs sonda tushlangan fe‘l bilan ifodalangan ergash gapdan tarkib topadi. Ergash gapning sintaktik funksiyalariga ko‘ra quyidagi turlar farqlanadi:

1. To‘ldiruvchi asosli qisman predikativli fe‘lli frazeologizmlar: *croire que les enfants naissent sous les choux* “o‘ta sodda bo‘lmoq”; *savoir de quoi il retourne* “gap nimadaligini fahmlamoq”.

2. Aniqlovchi asosli qisman predikativli fe‘lli frazeologizmlar: *faire feu qui dure* “uzoq yashamoq”.

3. Hol asosli qisman predikativli fe‘lli frazeologizmlar: *aller où le vent nous passe* “boshi oqqan tomonga ketmoq”; *être puni par où l’on a péché* “qilmishiga yarasha jazo olmoq”.

4. Qiyoslashga asoslangan qisman predikativli fe‘lli frazeologizmlar: *courir comme si on avait le diable à ses trousses* “bor kuchi bilan qochmoq”.

Frazeologiya nazariyasining asosiy masalalaridan biri bu frazeologik ma‘noning hosil bo‘lishi to‘g‘risidagi masala bo‘lib, u tadqiqotchilarning diqqat markazidan tushmay kelmoqda. Tadqiqotlarda asosiy e‘tibor nafaqat frazeologik semantikaning umumiy nazariyasiga, balki frazeologik birliklarning semantik tuzilishi masalalariga ham qaratilmoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, frazeologik ma‘no juda murakkab bo‘lgan jarayon bo‘lib, unga komponentlar ma‘nosining mexanik ravishda umumlashtirishdan iborat jarayon deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Fominaning yozishicha, frazeologik birikmaning ma‘nosi — bu yagona, butun, umumlashgan va doimo ekspressivdir (11, 242).

Har qanday frazeologik birikmaning semantik strukturasi o‘ziga xos mikrosistema bo‘lib, uni tashkil etuvchi elementlar bir-biri bilan chambarchas aloqada va shu bilan birga bir-biriga bog‘liq bo‘lishlari bilan xarakterlanadi. A. D. Rayxshteyn frazeologik birikmalarning o‘ziga xosligi semalarning birikuvi xususiyatida ekanligini ta‘kidlaydi. Semalar nafaqat frazeologik birikmalar semantikasini

hosil qiluvchi birlik sifatida, balki ularni bir-biriga bog'lovchi qism sifatida muhim o'rin tutadi (9, 110).

Biz inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilishda yuqoridagi olimlarning qarashlariga suyardik. Inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalar otli, fe'lli yoki sifat asosli bo'lishiga ko'ra ularning ma'nosi turlicha bo'lishini ta'kidlash joiz. Tadqiqotimizda otli va sifat asosli frazeologik birikmalarda ma'no to'laroq namoyon bo'lishi aniqlandi. Bunday frazeologik birikmalarning lug'atlarda berilgan ma'nolari qiyoslanganda ularning semantik jihatdan turli tumanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sifat asosli frazeologik birikmalar odatda belgi to'g'risidagi nisbatan oddiy ma'lumotni ifodalasa, otli birikmalar, aksincha murakkab ma'noni ifodalaydi. Bunga asosiy sabab ular inson va unga oid sifat va belgilarni ifodalashga xizmat qilishidir.

Insonni ko'pgina belgilariga ko'ra sifatlash mumkin. Masalan, uning tashqi ko'rinishiga qarab, xarakteriga ko'ra, aqliy qobiliyatlariga ko'ra, hayotiy tajribasiga ko'ra va h.k. Biz inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birikmalarni quyidagicha semantik guruhlariga bo'ldik:

A. Somatizmlar. Fransuz tilida. **Avoir un poil dans la main** (qo'li junli bo'lmoq) — dangasa bo'lmoq; **la main sur le coeur ou la conscience** (qo'li ko'ksida) — chin ko'ngildan; **applaudir des deux mains** (à quelque chose) (ikki qo'li bilan qarsak chalmoq) — to'liq qo'shilmoq, quvvatlamoq; **avoir la main dominante** (beruvchi qo'l) — qo'li ochiq; **avoir une grosse tête** (kallasi katta bo'lmoq) — aqli bo'lmoq; **faire un coup de tête, agir sur un coup de tête** (bosh bilan zarba berish) — o'ylamay ish qilmoq.

O'zbek tilida. Oyog'i yerdan uzilgan; til biriktirmoq; bosh ko'tarmoq; tiz cho'kmoq; yuzi yorug'; yuziga oyoq qo'ymoq; yuragida kiri yo'q; ko'zga ko'ringan; ko'zini shira (yog') bosgan; ko'zini (masalan, ishni) bilmoq; ko'ziga issiq ko'rinmoq; labi labiga tegmaydi; labini tishlamoq; kekirdagini cho'zmoq; bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqib ketmoq; burnini suqmoq; yelkasining chuquri ko'rsin; boshiga ko'tarmoq; boshiga yetmoq; boshini ikki qilmoq; boshidan oshib yotmoq; ikki barmog'ini burniga tiqmoq.

B. Zoonimlar. Fransuz tilida. **Appeler un chat un chat** (itni it deb atamoq) — har narsani o'z nomi bilan atamoq; **s'entendre comme chien et chat** (it va mushuk kabi munosabatda bo'lmoq) — it-mushuk bo'lmoq; **Avoir un chat dans la gorge** (tomog'ida mushuk) — tili kalimaga kelmaslik; **saractère de cochon** (cho'chqa xarakteri) — cho'chqa xarakterli; **mouton à cinq pattes** (besh oyoqli qo'y) — topilmas odam yoki narsa, anqoning urug'i; **doux comme un agneau** (qo'zichoq kabi muloyim) — muloyim kishi, qo'y og'zidan cho'p olmagan; **être un mouton** (qo'y bo'lmoq) — boshqalar ketidan ko'r-ko'rona ergashish; **être bête comme une oie** (g'oz kabi ahmoq) — g'oz kabi ahmoq bo'lmoq; **rusé comme un renard** (tulkidek ayyor) — tulkidek ayyor; **un requin** (akula) — qo'li uzun, kalondimog', dimog'dor; **être une langue de vipère** (ilon tili

bo'lmoq) — tili yomon, qo'pol; **avoir une mémoire d'éléphant** (fil xotirasiga ega) — kuchli, ajoyib xotiraga ega; **larmes de crocodile** (timsoh yoshlari) — ayyorona ko'z yosh to'kmoq.

O'zbek tilida. Ammamning buzog'i; ilonning yog'ini yalagan; qo'y og'zidan cho'p olmagan; bir o'q bilan ikki quyovni urmoq; yer tagida ilon qimirlasa bilmoq; pashshadan fil yasamoq; ish bitguncha, eshak loydan o'tguncha; kapalagi uchdi; mushugini pisht demaslik; otdan tushsa ham, egardan tushmaslik; sichqonning uyi ming tanga bo'ldi.

V. O'simlik nomlari ishtirokidagi FBlar. Fransuz tilida. **Pousser comme une mauvaise herbe** — yomon o't kabi tez o'smoq; **raconter des salades** (salatlar so'zlab bermiq) — yolg'on-yashiq gapirmiq; **s'occuper de ses oignons** (o'zining piyozi bilan shug'ullanish) — o'zining ishi bilan shug'ullanish, birovlarining ishiga burun suqmaslik; **avoir un coeur d'artichaut** (artishok yurak) — yengiltabiat odam, **être rouge comme une tomate** (pomidor kabi qizargan) — uyalganidan qizarib ketmoq.

V. O'zbek tilida. Arpasini xom o'rmoq; ildizi baquvvat; tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; qo'yning puch yong'oqqa to'ldirmiq.

G. Predmet nomlari (jonsiz narsalar) ishtirokidagi FBlar. Fransuz tilida. **Avoir du pain sur la planche** (doska ustida non) — ishi ko'p, ishi boshidan oshgan; **ne pas être dans son assiette** (o'z tarelkasida bo'lmaslik) — o'zini jismonan va ruhan yomon his qilish; **travailler du chapeau** (shlyapasi ishlaydi) — aqli-xushi joyida emas; **partir comme une flèche** (nayza o'qidek tez jo'namoq) — juda tez jo'nab ketmoq; **tenir table ouverte** (stoli ochiq) — dasturxonni ochiq, mehmondo'st.

O'zbek tilida. Tegirmondan butun chiqmoq; temirni qizig'ida bosmoq; aravani quruq olib qochmoq; bag'ri tosh (bemehr, iltifoti yo'q); miltiqning o'qidek; bir pul (tiyin) bo'lmoq; do'ppisini osmonga otmoq; do'ppi tor keldi; kavushini to'g'rilab qo'ymoq; yeng shimarib; yostig'ini quritmoq; ishtahasi karnay; mis chiqdi (soxtaligi, yolg'onligi fosh bo'ldi); nonini tuya qilmoq (bo'sh-bayovligidan foydalanib, aldab-suldab haqini o'zlashtirmoq); nog'orasiga o'ynamoq; og'zidan bol tomadi; soyasiga ko'rpacha solmoq; to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq; chuchvarani xom sanamoq.

Shunday qilib, tanlab olingan til materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, frazeologik birlik o'ta murakkab bo'lgan, turli aspektlarda namoyon bo'ladigan hamda chegarasini aniqlash qiyin o'ziga xos tizimning bir bo'lagi hisoblanadi. Fransuz va o'zbek tillari frazeologik tarkibi keng va turli tumandir va bu narsa inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning nutqda qo'llanishidagi mazmuniy va ifodaviy o'zgarishlar semantik, grammatik va funksional sathlarda o'rganilishi frazeologik tizimning to'laroq tadqiq etilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov Sh., Shukurova F. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar etimologiyasiga oid ayrim mulohazalar // *Международный журнал Искусство слова*. — 2020. — № 3. — С. 13–18.
2. Балли Ш. Французская стилистика. — М.: Изд-во иностр. лит., 1961. — 394 с.
3. Буслев Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. — М.: Русский язык, 1954. — 176 с.
4. Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. — М.: Учпедгиз, 1959. — 492 с.
5. Назарян А.Г. История развития французской фразеологии. — М.: Высш.школа, 1981. — 189 с.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. — М.: Высш.школа, 1987. — 288 с.
7. Nasirov A.A. Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari: *Filol. fanlari d-ri ... dis. avtoref.* — Toshkent, 2016. — 32 b.
8. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o'zbek va rus tillari materialida): *filol.fanl. bo'yicha fals. dokt. avtoref.* — Buxoro, 2020. — 24 b.
9. Райхштейн А.Д. Сравнительный анализ немецкой и русской фразеологии. — М.: Высш.школа, 1980. — 143 с.
10. Сулайманова М.А. Фразеологизмы качественной характеристики человека в немецком и узбекском языках: *Дисс. ... к. ф. наук.* — Душанбе, 2005. — 165 с.
11. Фомина М.И. Современный русский язык. Лексикология. — М.: Высш.школа, 1983. — 335 с.
12. Xudayberganova Z.N., Mamarajabov B.B. Til va madaniyat: o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir masalasi // *Zamonaviy ta'lim*. — 2016. — № 1. — B. 30–34.
13. Qurbonova G.S. Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari: *Filol.fanl. bo'yicha fals. dokt. avtoref.* — Toshkent, 2019. — 11 b.

References

1. Ashurov Sh., Shukurova F. *Mejdunarodnyy jurnal iskusstvo slova*, 2020, No. 3, pp. 13–18.
2. Balli Sh. *Fransuzskaya stilistika* (French style), Moscow: Izd-vo inostr. lit., 1961, 394 p.
3. Buslaev F.I. *Russkie poslovisy i pogovorki, sobrannyye i ob'yasnennyye* (Russian proverbs and sayings collected and explained), Moscow: Russkiy yazyk, 1954, 176 p.
4. Vinokur G.O. *Izbrannyye raboty po russkomu yazyku* (Selected works on the Russian language), Moscow: Uchpedgiz, 1959, 492 p.
5. Nazaryan A.G. *Istoriya razvitiya fransuzskoy frazeologii* (History of the development of French phraseology), Moscow: Vissh.shkola, 1981, 189 p.
6. Nazaryan A.G. *Frazeologiya sovremennogo fransuzskogo yazyka* (Phraseology of the modern French language), Moscow: Vissh.shkola, 1987, 288 p.
7. Nasirov A.A. *Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari* (Semantic-stylistic and national-cultural features of proverbial phraseologisms in French, Uzbek and Russian), Extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent, 2016, 32 p.
8. Radjabova M.A. *Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o'zbek va rus tillari materialida)* (Linguistic aspect and translation problems of phraseological units with an onomastic component (in the material of English, Uzbek and Russian languages)), Extended abstract of candidate's thesis, Bukhara, 2020, 24 p.
9. Rayxshhteyn A.D. *Sopostavitelnyy analiz nemeskoy i russkoy frazeologii* (Comparative analysis of German and Russian phraseology), Moscow: Vissh.shkola, 1980, 143 p.

10. Sulaymonova M.A. *Frazeologicheskie yediniyi kachestvennoy xarakteristiki cheloveka v nemeskom i uzbekskom yazykax* (Phraseological unity of qualitative characteristics of a person in German and Uzbek languages), candidate's thesis, Dushanbe, 2005, 165 p.
11. Fomina M.I. *Sovremennyy russkiy yazyk. Leksikologiya* (Modern Russian language. Lexicology), Moscow: Vissh.shkola, 1983, 335 p.
12. Xudayberganova Z.N., Mamarajabov B.B. *Zamonaviy ta'lim*, 2016, No. 1, pp. 30–34.
13. Qurbonova G.S. *Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari* (National-linguistic features of onomastic component phraseologisms in French and Uzbek), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2019, 11 p.